

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 81 943,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,8 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 7,7 % ga yetdi.

## 2023- yilda Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

|  | Mlrd. so'm      |                 | O'sish<br>sur'atlari,<br>o'tgan yilga<br>nisbatan % da |
|--|-----------------|-----------------|--|
|  | 2022- yil       | 2023- yil       |  |
| <b>I. YAHM, jami</b>                                   | <b>68 799,4</b> | <b>81 943,2</b> | <b>105,8</b>   |
| <i>shu jumladan:</i>                                   |                 |                 |  |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati              | 67 558,6        | 80 865,7        | 105,8  |
| mahsulotlarga sof soliqlar                             | 1 240,8         | 1 077,5         | 106,3  |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>  | <b>67 558,6</b> | <b>80 865,7</b> | <b>105,8</b>   |
| <b>qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b>    | <b>9 369,1</b>  | <b>11 224,4</b> | <b>101,9</b>   |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>          | <b>49 830,1</b> | <b>59 728,5</b> | <b>106,7</b>   |
| sanoat   | 47 366,7        | 56 901,7        | 106,7  |
| qurilish   | 2 463,4         | 2 826,8         | 107,5  |
| <b>xizmatlar</b>                                       | <b>8 359,4</b>  | <b>9 912,8</b>  | <b>104,4</b>   |
| savdo, yashash va<br>ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar | 1 978,5         | 2 352,1         | 106,8  |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 1 124,9         | 1 322,8         | 106,8  |
| boshqa xizmat tarmoqlari                               | 5 256,0         | 6 237,9         | 102,9  |



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 76 913,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,7 % ga yuqoridir.

## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

|   | 2022- yil    | 2023- yil    |
|---|--------------|--------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                                  | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                                  |              |              |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati             | 98,2         | 98,7         |
| mahsulotlarga sof soliqlar                            | 1,8          | 1,3          |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <b>qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>13,9</b>  | <b>13,9</b>  |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>73,7</b>  | <b>73,9</b>  |
| sanoat  | 70,1         | 70,4         |
| qurilish  | 3,6          | 3,5          |
| <b>xizmatlar</b>                                      | <b>12,4</b>  | <b>12,2</b>  |
| savdo, yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar   | 2,9          | 2,9          |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa               | 1,7          | 1,6          |
| boshqa xizmat tarmoqlari                              | 7,8          | 7,7          |



2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 13,9 % ni, sanoat tarmog‘i 70,4 % ni, qurilish 3,5 % ni va xizmatlar sohasi 12,2 % ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil

1,8%



13,9%

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

70,1%

Sanoat

3,6%

Qurilish

12,4%

Xizmatlar

2023- yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

13,9%

Sanoat

70,4%

Qurilish

3,5%

Xizmatlar

12,2%



1,3%


● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,3 f.p. (2022- yilda – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,6 f.p. (2022- yilda – 4,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2022- yilda – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 0,5 f.p. (2022- yilda – 0,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2022- yilda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

## 2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 13,9 %), sanoatda – 106,7 % (70,4 %), qurilishda – 107,5 % (3,5 %), xizmatlar sohasida – 104,4 % ni (12,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,8 % (2,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 106,8 % (1,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,9 % dan (7,7 %) iborat bo'ldi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

2022- y.

2023- y.



5,8 %

YAHM

5,8 %



5,2 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

1,9 %



6,1 %

Sanoat

6,7 %



5,5 %

Qurilish

7,5 %



4,9 %


Xizmatlar

4,4 %



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 112,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 117,5 % va xizmatlar sohasida – 113,6 % qayd etildi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)





2023- yilda kichik tadbirkorlik 21 057,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022- yilda – 17 478,6 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 26 % ni (2022- yilda – 25,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

## Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022- yil

17 478,6

25,9 %

2023- yil

21 057,5

26,0 %

